V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2021- yilning yanvar–dekabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 23 324 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 4 835 ta, Xiva shahrida 2 055 ta, Xiva tumanida 1 784 ta, Urganch tumanida 2 702 ta, Xonqa tumanida 1 797 ta, Yangiariq tumanida 1 277 ta, Hazorasp tumanida 1 312 ta, Gurlan tumanida 1 543 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 1 747 ta, Bog‘ot tumanida 1 375 ta, Shovot tumanida 1 214 ta, Tuproqqal’a tumanida 545 ta va Yangibozor tumanida 1 138 tani tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2021-yil yanvar– dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (37,5 foizi), sanoat tarmog‘ida (22,4 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (12,9 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (6,6 foiz) tashkil etilgan.

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p Urganch shahrida 31,1 birlikda, Xiva shahrida 20,4 birlikda, Yangibozor tumanida 17,9 birlikda, Urganch tumanida 15,9 birlikda, Tuproqqal’a tumanida 14,2 birlikda, Xiva tumanida 13,6 birlikda, Yangiariq tumanida 13,2 birlikda, Gurlan shahrida 13,0 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 8-12 birlik oralig‘ida Qo‘shko‘pir, Xonqa, Shovot, Bog‘ot, Hazorasp tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

2021- yilning yanvar- dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni *(har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2022- yil 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan	*2021- yil yanvar- dekabr*	
		tashkil topdi	*tugatildi*
Viloyat bo'yicha:	**23 324**	**4 914**	**1 751**
shaharlar:			
Urganch	4835	773	440
Xiva	2055	309	142
tumanlar:			
Bog'ot	1375	429	126
Gurlan	1543	355	119
Qo'shko'pir	1747	465	115
Urganch	2702	562	141
Hazorasp	1312	409	93
Tuproqqal'a	545	139	23
Xonqa	1797	334	78
Xiva	1784	275	170
Shovot	1214	278	67
Yangiariq	1277	318	150
Yangibozor	1138	268	87

2021-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 4 914 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 773 ta, Urganch tumanida 562 ta, Xiva shahrida 309 ta, Xonqa tumanida 334 ta, Qo'shko'pir tumanida 465 ta, Hazorasp tumanida 409 ta, Xiva tumanida 275 ta, Shovot tumanida 278 ta, Yangiariq tumanida 318 ta, Gurlan tumanida 355 ta, Bog'ot tumanida 429 ta, Yangibozor tumanida 268 ta va Tuproqqal'a tumanida 139 tani tashkil qildi.

2021- yil yanvar- dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 73,9 foizi (2020- yil yanvar- dekabrda 76,1 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2021- yilning yanvar- dekabr oylariida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3 003,1 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 22,0 foizi) tashkil qildi;

- 19 218,6 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 102,5 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 99,1 foizi) tashkil qildi;

- 5 060,8 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 59,0 foizi) o‘zlashtirildi va 2020- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 133,9 foizni tashkil qildi;

- 3 726,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 87,2 foizi) bajarildi va 2020- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 127,2 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 105,9 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 78,3 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 104,6 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 95,8 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 87,0 foizi yoki 9 270,0 mlrd. so‘mi (o‘sish 114,4 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 64,4 foizi yoki 5 387,5 mlrd. so‘mi (o‘sish 120,5 foiz) shakllantirildi;

- 119,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 51,7 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 213,7 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 74,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi

(2021- yilning yanvar- dekabr)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm	*Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida*
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 218,6	99,1
Sanoat	3 003,1	22,0
Qurilish	3 726,0	87,2
Chakana savdo	9 270,0	87,0
Yuk tashish, *mln tn.*	36,3	94,2
Yo'lovchi tashish, *mln.kishi*	370,5	93,6
Eksport, *mln. AQSh doll.*	119,2	51,7
Import, *mln. AQSh doll.*	213,7	74,8

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(foizda)